

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AGROTURIZM FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ISTIQBOLLARI

O'rishev O'lmasbek Maxammadjon o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

tayanch doktoranti

Tel: +998 94 565 67 98

Annotatsiya. Mazkur maqolada agroturizm faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, uning qishloq hududlarini rivojlantirishdagi o'rni hamda istiqbolli yo'nalishlari tadqiq etilgan. Agroturizmning qishloq xo'jaligi, turizm va mahalliy aholi manfaatlarini o'zaro uyg'unlashtiruvchi faoliyat turi sifatidagi mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, agroturizmni tashkil etishda tabiiy va qishloq xo'jaligi resurslaridan samarali foydalanish, mahalliy an'analar va milliy qadriyatlarni turistik mahsulotga aylantirish, xizmatlar sifatini oshirish hamda turistlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada agroturizm faoliyatining hududlar iqtisodiy rivojlanishi, yangi ish o'rinlari yaratish, qishloq aholisi daromadlarini oshirish va mahalliy turistik salohiyatdan samarali foydalanishdagi ahamiyati asoslangan. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish agroturizm xizmatlarini targ'ib qilish, turistlarni jalb etish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini takomillashtirishning muhim omili sifatida ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari asosida agroturizmni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari va uni samarali tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: agroturizm, qishloq turizmi, qishloq xo'jaligi, turistik xizmatlar, qishloq hududlari, turistik salohiyat, mahalliy resurslar, raqamli texnologiyalar.

KIRISH

Bugungi kunda turizm sohasi iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Turizmning an'anaviy yo'nalishlari bilan bir qatorda, turistlarning tabiiy muhit, qishloq hayoti, mahalliy urf-odatlar va qishloq xo'jaligi faoliyati bilan bevosita tanishishga bo'lgan qiziqishining ortib borishi natijasida agroturizmning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Agroturizm qishloq xo'jaligi faoliyati va turizm xizmatlarini o'zaro uyg'unlashtirgan holda qishloq hududlarining mavjud tabiiy, iqtisodiy, madaniy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Agroturizmning muhim xususiyati shundan iboratki, u nafaqat turistlarga dam olish va sayohat qilish imkoniyatini yaratadi, balki qishloq xo'jaligi jarayonlarida ishtirok etish, mahalliy mahsulotlarni iste'mol qilish, milliy taomlar tayyorlash jarayoni bilan tanishish, hunarmandchilik faoliyatini kuzatish va mahalliy aholining turmush tarzini o'rganish kabi xizmatlarni ham o'z ichiga oladi. Shu jihatdan agroturizm qishloq hududlarida iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiya qilish, qishloq xo'jaligiga qo'shimcha daromad manbalarini yaratish va mahalliy tadbirkorlikni

rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda qishloq hududlarining tabiiy-iqlim sharoiti, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining xilma-xilligi, milliy urf-odatlar, boy gastronomik meros va hunarmandchilik an‘analari agroturizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, meva-sabzavotchilik, chorvachilik, asalarichilik, uzumchilik, ipakchilik va boshqa qishloq xo‘jaligi yo‘nalishlari bilan bog‘liq turistik xizmatlarni tashkil etish orqali hududlarning turistik jozibadorligini oshirish mumkin. Biroq mavjud imkoniyatlarga qaramasdan, agroturizm faoliyatini tashkil etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, xizmatlar turlarini kengaytirish, infratuzilmani takomillashtirish va turistik mahsulotlarni bozorga olib chiqish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Agroturizm faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish masalalari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, R. Sharpley agroturizmni qishloq hududlarini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi faoliyatini diversifikatsiya qilish va mahalliy aholi uchun qo‘shimcha daromad manbalarini shakllantirishning muhim yo‘nalishi sifatida baholaydi. C. Flanigan, S. Blackstock va I. Hunter agroturizmni qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan turistik xizmatlarni uyg‘unlashtirish asosida shakllanadigan turizm turi sifatida tadqiq etib, uning qishloq hududlarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishidagi ahamiyatini asoslaydilar. J. Phillip, C. Hunter va K. Blackstock esa agroturizmni rivojlantirishda qishloq xo‘jaligi resurslari, mahalliy madaniyat, tabiiy muhit va turistlar ehtiyojlarining o‘zaro uyg‘unligini ta‘minlash zarurligini ta‘kidlaydilar.

Agroturizmni rivojlantirish masalalari MDH va O‘zbekiston olimlari tadqiqotlarida ham o‘z aksini topgan. Jumladan, qishloq turizmi va agroturizmga oid tadqiqotlarda qishloq hududlarining turistik salohiyatidan samarali foydalanish, mahalliy aholini turistik xizmatlar ko‘rsatishga jalb etish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini turistik mahsulotga aylantirish agroturizmni rivojlantirishning muhim omillari sifatida ko‘rib chiqiladi. O‘zbekistonlik olimlar tomonidan esa turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish, hududlarning tabiiy va madaniy resurslaridan samarali foydalanish, qishloq joylarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda mahalliy aholi daromadlarini oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlarda agroturizm faoliyatini tashkil etishning hududiy xususiyatlari, qishloq xo‘jaligi va turizm subyektlari o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlari hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kompleks tadqiq etish masalalari yetarlicha o‘rganilmagan. Bu esa agroturizm faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari va istiqbollarini tadqiq etishning dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda agroturizm faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari va rivojlanish istiqbollarini o‘rganishda kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini agroturizm, qishloq turizmi,

turizm iqtisodiyoti va hududiy rivojlanishga oid ilmiy konsepsiyalar hamda xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli, qiyosiy va tarixiy-mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni o'rganish va umumlashtirish orqali agroturizm faoliyatining mazmuni, asosiy shakllari va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tizimlashtirildi. Shuningdek, agroturizmni tashkil etishda qishloq xo'jaligi va tabiiy resurslardan foydalanish, mahalliy aholini jalb etish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish hamda hududiy turistik salohiyatdan samarali foydalanish masalalari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalarini asoslashda qiyosiy tahlil, umumlashtirish va mantiqiy xulosa chiqarish usullaridan foydalanildi. Mazkur metodologik yondashuv agroturizm faoliyatini samarali tashkil etishning asosiy omillarini aniqlash va uning istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini asoslash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli texnologiyalarni joriy etish agroturizm faoliyatini tashkil etish jarayonlarini yanda samarali tashkil etish imkonini beradi. Elektron bron qilish tizimlari, geografik axborot tizimlari (GIS), mobil ilovalar, elektron to'lov vositalari, sun'iy intellekt asossidagi tahliliy platformalar hamda raqamli marketing texnologiyalari xizmatlarni rejalashtirish, turistlar oqimini boshqarish va bozor talabini tezkor baholashga yordam beradi. Raqamli vositalardan foydalanish xizmatlarini individuallashtirish, axborot almashinuvini tezlashtirish, boshqaruv xarajatlarini kamaytirish hamda hududiy agroturistik mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarda samarali targ'ib qilish uchun sharoitlar yaratiladi.

Institutsional asoslarning izchil rivojlanishi hududlarda agroturizm faoliyatini barqaror tashkil etishning zarur shartlaridan biridir. Hamkorlik aloqalarining mustahkamlanishi, iqtisodiy manfaatlarining o'zaro uyg'unlashuvi, moliyalashtirish manbalarining kengayishi va boshqaruv vositalarining takomillashuvi xizmatlar ko'lamini kengaytirishga xizmat qiladi. Natijada hududlarning turistik jozibadorligi ortadi, yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish imkoniyatlari kengayadi, iqtisodiy faollik kuchayadi hamda agroturizmning uzoq muddatli rivojlanishi uchun barqaror institutsional muhit shakllanadi.

Agroturizm faoliyatini samarali tashkil etish hududlarning tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional xususiyatlarini hisobga oluvchi yondashuvlarga tayanishni talab etadi. Har bir yondashuv agroturizmni rivojlantirishning alohida yo'nalishini yoritib, resurslardan foydalanish, xizmatlar ko'rsatishni tashkil etish, ishtirokchilar o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda turistlar ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Yondashuvlarning o'zaro uyg'unligi agroturizm faoliyatini hududiy xususiyatlarga mos ravishda tashkil etish, xizmatlar sifatini oshirish, iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash va uzoq muddatli rivojlanish istiqbollarini shakllantirish imkonini beradi. Shu munosabat bilan agroturizm faoliyatini tashkil etishning keng qo'llaniladigan yondashuvlari 1 -jadvalda tizimlashtirilgan.

Agroturizmni faoliyatini tashkil etishning eng ko'p uchraydigan yonashuvlaridan biri bu klasterlash yondashuvi hisoblanadi. "Marketing strategiyasini,

brendingni, qishloq turizmini reklama qilishni va uni rivojlantirish bilan bog‘liq boshqa masalalarni ishlab chiqish uchun ishchi organ – har bir hududda vakolatxonalari bo‘lgan agrar mintaqaning agroturizm faoliyati klasterini yaratish kerak. Ushbu Klaster turizm bozori va unga aloqador sohalar korxonalari, qishloq xo‘jaligi, madaniyat, fan, ta‘lim va boshqa korxonalar, tashkilotlar va jamoat muassasalarining o‘zaro hamkorligi va hamkorligini o‘z ichiga oladi, geografik jihatdan turli darajadagi hokimiyatlarning bevosita ishtirokida qishloq joylarda mahalliy lashtiriladi. Klaster ishtirokchilarining geografik yaqinligi tufayli ishlab chiqarish kooperatsiyasi jarayonlari soddalashtiriladi, ular o‘rtasida barqaror axborot, marketing va biznes aloqalarini o‘rnatish, davlat hokimiyati organlari va boshqa manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro munosabatlarda jamoaviy manfaatlarni ilgari surish imkoniyati kuchaytirildi, bu esa tranzaksion xarajatlarning pasayishiga va o‘zaro munosabatlarga erishishga olib keladi”.

1-jadval

Agroturizm faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos yondashuvlari³²

Yondashuv	Mazmuni	Agroturizm faoliyatini tashkil etishdagi ahamiyati
Hududiy yondashuv	Agroturizmni tashkil etishda hududning tabiiy-iqlim sharoiti, qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvi, tarixiy-madaniy merosi, demografik holati, transport infratuzilmasi va mavjud turistik resurslari kompleks baholanadi. Har bir hududning rivojlanish darajasi va mavjud imkoniyatlariga mos turistik mahsulotlar shakllantiriladi.	Hududlarning ichki salohiyatidan to‘liq foydalanish, turistik mahsulotlarni mahalliy xususiyatlarga moslashtirish, hududiy brendlarni shakllantirish hamda hududlarning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.
Institutsional yondashuv	Agroturizm faoliyatini tartibga soluvchi davlat organlari, mahalliy boshqaruv tuzilmalari, fermer xo‘jaliklari, turizm tashkilotlari, moliyaviy institutlar, ilmiy-ta‘lim muassasalari va nodavlat tashkilotlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamda tashkiliy munosabatlarni yagona tizim asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Hamkorlik mexanizmlari, vakolatlar va mas‘uliyatning aniq taqsimlanishi ushbu yondashuvning mazmunini tashkil etadi.	Xizmatlar bozorining barqaror faoliyat yuritishini ta‘minlaydi, investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytiradi, boshqaruv jarayonlarining samaradorligini oshiradi hamda faoliyat ishtirokchilari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi.
Klaster yondashuvi	Fermer xo‘jaliklari, qayta ishlash korxonalari, mehmon uylari, hunarmandlar, transport, savdo va umumiy ovqatlanish subyektlarini yagona qiymat zanjiri asosida birlashtirishga yo‘naltiriladi. Barcha ishtirokchilar o‘rtasida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarining uzviy bog‘liqligi ta‘minlanadi.	Qo‘shimcha qiymat yaratish hajmini oshiradi, xizmatlar sifati va ko‘lamini kengaytiradi, xarajatlarni qisqartiradi hamda hududiy iqtisodiyotning multiplikativ samarasini kuchaytiradi.
Innovatsion yondashuv	Raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt, geografik axborot tizimlari (GIS), elektron bron qilish platformalari, mobil ilovalar va zamonaviy marketing vositalaridan foydalanishga asoslanadi. Axborot texnologiyalari yordamida boshqaruv va xizmat ko‘rsatish jarayonlari	Turistlar oqimini boshqarishni takomillashtiradi, xizmatlarni tezkor va sifatli tashkil etadi, hududiy agroturistik mahsulotlarning ichki hamda xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi.

³² Muallif ishlanmasi adabiyotlar tahlili asosida

	optimallashtiriladi.	
Bozor yondashuvi	Turistlarning talab va ehtiyojlari, narx siyosati, raqobat muhiti, iste'molchilar xulq-atvori va xizmatlar bozorida o'zgarishlarni muntazam tahlil qilishga asoslanadi. Agroturistik mahsulotlar bozor talabi asosida shakllantiriladi va takomillashtiriladi.	Bozor talabiga mos xizmatlarni rivojlantirish, turistlar qoniqish darajasini oshirish, xizmatlar diversifikatsiyasini ta'minlash hamda daromadlar barqarorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.
Barqaror rivojlanish yondashuvi	Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash, mahalliy aholining manfaatlarini himoya qilish, tarixiy va madaniy merosni asrash hamda ekologik xavfsizlik talablariga rioya etishga yo'naltiriladi.	Hududlarning ekologik barqarorligini saqlaydi, resurslardan uzoq muddat foydalanish imkoniyatini yaratadi, ekologik xavflarni kamaytiradi va agroturizmning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari qo'llab-quvvatlaydi.

Agroturizm faoliyatini tashkil etishda klasterlash yondashuvining ijobiy tomonlari quyidagilar hisoblanadi:

- agroturizm subyektlari o'rtasida barqaror hamkorlik aloqalarini shakllantirish;
- hududiy resurslardan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash;
- qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirish;
- turistik mahsulot va xizmatlarini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirish;
- hududiy agroturizm brendini shakllantirish va marketing faoliyatini takomillashtirish;
- investitsiyalarni jalb etish hamda investitsion jozibadorlikni oshirish;
- innovatsion texnologiyalar hamda raqamli xizmatlarni joriy etish jarayonlarini jadallashtirish;
- hududlarning turistik jozibadorligi va investitsion salohiyatini oshirish;
- qishloq hududlarining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashish.

“Vaziyatli yondashuv nazariyasi” tushunchasi birinchi marta R.Mokler tomonidan qo'llanilgan bo'lib, ushbu tushunchaning paydo bo'lishi mavjud boshqaruv nazariyalarining amaliy samaradorligini yetarli darajada emasligi bilan izohlanadi³³.

Keyinchalik ushbu nazariya qator tadqiqotchilar tomonidan (M.Follet, R.Stogdill, P.Draker, J.Vudvord va boshqalar) rivojlantirildi hamda Lourens va Lorch, Fidler, Xershey va Blanshard, Xauz va Mitchell vaziyatli boshqaruv modellari yaratildi³⁴.

Vaziyatli yondashuvning asosiy nuqtasi bu – ma'lum bir vaqtda faoliyat natijasiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan muayyan holatlar majmui bo'lgan vaziyat hisoblanadi. Vaziyatli yondashuv an'anaviy boshqaruv nazariyasi, xulq-atvor maktabi va boshqaruv fani maktabi konsepsiyalarini inkor etmaydi, va shu bilan birga,

³³ Вачугов Д.Д. Основы менеджмента: учебное пособие. - М.: Высшая школа, 2005. – С. 59.

³⁴ <http://econom-lib.ru/1-19.php>

boshqaruvning tizimli yondashuvi kabi tashkiliy muammolar va ularning yechimlari haqida fikr yuritish usulidir³⁵.

MUHOKAMA

Huquqiy-me'yoriy bazaning shakllanganligi agroturizm faoliyatini tashkil etishning institutsional asoslarini belgilovchi omillardan biridir. Huquqiy normalar agroturizm subyektlarining faoliyat yuritish tartibini, davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarini hamda xizmatlar ko'rsatish jarayonidagi munosabatlarni tartibga solidi. Barqaror huquqiy muhit investitsiyalarni jalb etish, xizmatlar sifatini oshirish va agroturizm bozorining izchi rivojlanishi uchu zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

"O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi O'RQ-549-son "Turizm to'g'risida"gi Qonuni turizm sohasini tartibga soluvchi bazaviy hujjat hisoblanadi. Ushbu qonunda turizm sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, turizm faoliyatining prinsiplari, turizm subyektlarining huquq va majburiyatlari, turizm xizmatlarini tashkil etish, turistlarning xavfsizligini ta'minlash hamda turizm infratuzilmasini rivojlantirishga oid normalar belgilangan. Qonunning 5-moddasida agroturizm turizmning alohida turi sifatida e'tirof etilgan bo'lib, ushbu yo'nalishni rivojlantirish uchun huquqiy asos yaratilgan"³⁶.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni bilan 2019–2025-yillarda turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangan. Farmonda turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish, turizm klasterlarini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, xizmatlar sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish va turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Ushbu yo'nalishlar agroturizmni tashkil etish va rivojlantirishning institutsional mexanizmlarini mustahkamlashga xizmat qiladi"³⁷.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi PF-5781-son "O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni turizm sohasini boshqarish tizimini takomillashtirish, vakolatli davlat organining funksiyalarini kengaytirish, hududiy boshqaruv tizimini kuchaytirish hamda turizm xizmatlari bozorini samarali muvofiqlashtirishga qaratilgan. Farmon agroturizm loyihalarini amalga oshirishda davlat boshqaruvi institutlarining o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi"³⁸.

Agroturizm faoliyatini tashkil etishning institutsional asoslari o'zaro bog'liq institutlar faoliyati orqali shakllanadi. Har bir institut agroturizm xizmatlarini tashkil etish, tartibga solish, moliyalashtirish, ilmiy-uslubiy qo'llab-quvvatlash va bozor


³⁵ Мескон М., Альберт М. др. Основы менеджмента, –М.: Дело, 1997. –С. 56.

³⁶ O'zbekiston Respublikasi. (2019). "Turizm to'g'risida" qonun (O'RQ-549-son, 18-iyul, 2019).

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida (PF-5611-son, 5-yanvar, 2019).

³⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida (PF-5781-son, 13-avgust, 2019).

munosabatlarini rivojlantirishda alohida vazifani bajaradi. Institutlar o'rtasidagi hamkorlikning izchil yo'lga qo'yilishi boshqaruv samaradorligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Agroturizm faoliyatini tashkil etishning institutsional asoslari 1-chizmada keltirilgan.



1-rasm. Agroturizm faoliyatini tashkil etishda institutsional asoslarni shakllantirish omillari³⁹

Bizning fikrimizcha, agroturizm faoliyatini tashkil etish qishloq xo'jaligi turizm va xizmatlar sohalarining o'zaro integratsiyasiga asoslangan murakkab iqtisodiy jarayonni ifodalaydi. Faoliyatni samarali yo'lga qo'yish hududlarning tabiiy resurslari, ishlab chiqarish ixtisoslashuvi, infratuzilma holati, bozor talabi va institutsional muhiyning rivojlanganlik darajasi bilan uzviy bog'liq. Agroturizmni tashkil etishda yagona yondashuvdan foydalanish barcha hududlar uchun bir xil natija bermaydi, chunki har bir hududning iqtisodiy va ijtimoiy sharoiti o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shu sababli hududiy imkoniyatlarni hisobga olgan holda moslashuvchan yondashuvlarni qo'llash agroturizm faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Agroturizm qishloq hududlarining tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy salohiyatidan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligi faoliyatini diversifikatsiya qilish, mahalliy aholi bandligi va daromadlarini oshirish hamda hududlarning turistik jozibadorligini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlardan biridir. Mazkur faoliyatning rivojlanishi qishloq xo'jaligi, turizm va xizmat ko'rsatish sohalarining o'zaro integratsiyasi, mavjud resurslardan oqilona foydalanish, turistik

³⁹Muallif ishlanmasi

xizmatlarni diversifikatsiya qilish hamda hududiy imkoniyatlarni turistik mahsulotga aylantirish jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois agroturizmni rivojlantirish qishloq hududlarida iqtisodiy faollikni oshirish, yangi daromad manbalarini shakllantirish, investitsiyalarni jalb etish va hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Agroturizm faoliyatini tashkil etishda hududiy, institutsional, klaster, innovatsion, bozor va barqaror rivojlanish yondashuvlarining o‘zaro uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etib, ularning kompleks qo‘llanilishi hududlarning o‘ziga xos imkoniyatlarini hisobga olgan holda samarali turistik mahsulotlarni shakllantirish imkonini beradi.

Agroturizm faoliyatini samarali tashkil etish hududlarning tabiiy-iqlim sharoiti, qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvi, infratuzilma holati, madaniy merosi, bozor talabi va institutsional muhitining rivojlanganlik darajasi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu sababli agroturizm faoliyatini tashkil etishda barcha hududlar uchun yagona yondashuvdan foydalanish o‘rniga hududiy xususiyatlarga moslashuvchan va kompleks yondashuvlarni qo‘llash maqsadga muvofiq. Ayniqsa, klaster yondashuvi fermer xo‘jaliklari, turistik tashkilotlar, mehmon uylari, hunarmandlar, transport, savdo va umumiy ovqatlanish subyektlarini yagona qiymat zanjiriga birlashtirish orqali qo‘shimcha qiymat yaratish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Shuningdek, huquqiy va institutsional asoslarning takomillashuvi, manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi hamkorlikning kuchayishi hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish agroturizm xizmatlarini samarali tashkil etish va hududiy agroturistik mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, agroturizmning istiqbolli rivojlanishi tabiiy va qishloq xo‘jaligi resurslaridan oqilona foydalanish, xizmatlar sifatini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, klaster hamkorligini rivojlantirish hamda ekologik va ijtimoiy barqarorlik tamoyillarini ta‘minlash bilan uzviy bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi O‘RQ-549-son “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi PF-5781-son “O‘zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. Sharpley R. Rural tourism and the challenge of tourism diversification: The case of Cyprus // *Tourism Management*. – 2002. – Vol. 23, No. 3. – P. 233–244.
5. Phillip S., Hunter C., Blackstock K. A typology for defining agritourism // *Tourism Management*. – 2010. – Vol. 31, No. 6. – P. 754–758.
6. Flanigan S., Blackstock K., Hunter C. Generating public and private benefits through understanding what drives different types of agritourism // *Journal of Rural Studies*. – 2015. – Vol. 41. – P. 129–141.
7. Barbieri C., Mshenga P.M. The role of the firm and owner characteristics on the

- performance of agritourism farms // Sociologia Ruralis. – 2008. – Vol. 48, No. 2. – P. 166–183.
8. Lane B. What is rural tourism? // Journal of Sustainable Tourism. – 1994. – Vol. 2, No. 1–2. – P. 7–21.
9. Roberts L., Hall D. Rural Tourism and Recreation: Principles to Practice. – Wallingford: CABI Publishing, 2001.
10. Aktamov O. Definition of agritourism as a multifunctional development in rural areas // Green Economy and Development. – 2025.